



ERTA YOSHDAGI BOLALARDA CHET TILIGA MOTIVASIYA
YARATISH: PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Matqosimova Mohira Erkinbek qizi

ADCHTI, Nemis tili nazariyasi va amaliyoti Kafedrasи o'qituvchisi

Mohiragina@gmail.com

Ibrohimjonova Mashhura Nurali qizi

*ADCHTI, Ingliz filologiyasi o'qitish metodikasi, Tarjimashunoslik fakulteti
talabasi*

ibrohimjonovamashhura@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada erta yoshdagи bolalarda chet tilini o'rghanishga bo'lgan motivatsiyani shakllantirish masalasi ko'rib chiqilgan. Motivatsyaning bolalar til o'rghanishidagi o'rni, unga ta'sir qiluvchi omillar hamda pedagogik yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilingan. O'yinli metodlar, vizual vositalar, shaxsiy qiziqishlarga asoslangan yondashuvlar, ijobiy psixologik muhit yaratish va ota-onalar bilan hamkorlik qilish orqali bolalarda chet tiliga ijobiy munosabat shakllantirish yo'llari yoritilgan. Tadqiqot natijalari erta ta'lim jarayonida chet tilini muvaffaqiyatli o'rgatish uchun samarali metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: erta yosh, chet tili, motivatsiya, pedagogik yondashuv, o'yinli metod, vizual materiallar, ota-onalar bilan hamkorlik, til o'rghanish, rag'batlantirish

Globalizatsiya sharoitida chet tillarini erta yoshdan o'rghanish zaruratga aylanmoqda. Ayniqsa, bolalik davri — til o'rghanishga eng qulay va samarali bosqichlardan biridir. Ammo bolalarda chet tilini o'rghanishga bo'lgan ichki rag'bat — motivatsiya shakllantirish har doim ham oson emas. Ushbu maqolada erta



yoshdagi bolalarda chet tiliga bo‘lgan motivatsiyani shakllantirishda samarali pedagogik yondashuvlar yoritiladi.O ‘rta umumiyligi ta ’lim maktabalarida chet til o’qitish metodikasi fani erishgan yutuqlarni egallash talabalar uchun quyidagi imkoniyatlami yaratadi: kelajak kasbiy faoliyatlariga puxta nazariy zamin tayyorlaydi; ta ’limning zamонавиy metodlari,tashkiliy formalari va vositalari bilan atroflicha tanishtiradi; talabalaming olgan metodik bilimlarini amaliyotda samarali qo‘llay olishlari uchun ko‘nikma va malakalar hosil qiladi;barcha fanlardan o ‘zlashtirgan nazariy bilim va amaliy malakalarini mакtab ta’lim-tarbiya ishida ijodiy tatbiq etishga ko‘maklashadi. Ona tili va ikkinchi til ta’limidagi qoidalar sistemali (uzviy) lingvistik mazmun kasb etadi. Chunki tilni tabiiy m uhitda amaliy o ‘rganish va unga ajratiladigan vaqt (soatlar) m iqdori m ukam m al qoidalar berish imkoniyatini yaratadi. Chet til o ‘rgatish sharoiti (sun’iy m uhit va ajratilgan kam soatlar) qoidalama i oddiy lashtirish va sonini ozaytirish muammosini ko‘ndalang qilib qo‘yadi.Til birligi, bir tom ondan, sezgilar yordamida idrok etilsa, ikkinchi tomondan, faqat tafakkur hosilasi, mantiqiy jarayon natijasi bo‘lib ro‘yobga chiqadi.

N utq faoliyati nazariyasidan m a’lumki, faoliyat mazmunini harakatlar tashkil etadi (akademik Aleksey Nikolayevich Leontyev). Subyekt harakati oriyentir (yo‘llovchi) va ijro qism laridan iborat. M as. gram m atik harakatlarni egallash nutqning grammatic shakUanishida avtomatlashgan malakaning hosil bo‘lishi dem akdir (prof. Valentina Samoylovna Setlin ilmiy kashfiyoti). Harakat, o‘z navbatida, operatsiyalardan tuziladi. Operatsiya harakatning ro ‘yobga chiqish vositasidir. Operatsiyalar sistemasi — harakat modeli, uni bajarish algoritmidir. Til o ‘rgatish metodikasida algoritm bilan qoidani chalkashtirish yaram aydi. Algoritm deganda, oddiy operatsiyalarni muayyan izchillikda bajarish haqidagi aniq ko‘rsatmani tushunamiz. H ar qanday algoritm — bu qoidadir, lekin har qanday qoida algoritm emas. Qoida nomi bilan odatda nutqiy grammatic ko‘nikma hosil qilish jarayonida qoilaniladigan ko‘rsatmalar yoki um um lashm alar majmuasini atash ma’quldir.



Statistik ma'lumotlarga ko'ra, yarim soatdan ko'proq vaqt davomida bolalarning e'tiborini jalg qilish mumkin emas. 20 daqiqa yoki yarim soat o'tgach, bola avtomatik ravishda chalg'iydi. Shuning uchun bolalarni o'yin orqali o'qitish usuli ham juda sa-marali. Misol uchun, agar bolalarga rasmlar berilsa va inglizcha nomlarini topsa, qiziqarli bo'ladi. Buning uchun bizga hayvonlarning rasmlari bo'lgan kartalar yoki varaqlar kerak. O'qituvchi hayvonlarning nomlarini aytishga yordam beradi. Aksari-yat bolalarda ko'rgan narsalarini eslab qolish qobiliyati yaxshi rivojlanganligi sababli, bu usul juda samarali bo'lishi mumkin. Kattalardan asosiy farqi shundaki, bolalar ingliz tilini o'qimaydilar, o'rganadilar, o'ynaydilar. Ya'ni, ular o'qitiladi albatta, lekin ular bunday deb o'yla-maydilar. Bu yoshda ularni biror narsani o'rganishga majburlash befoyda - bolalarda beixtiyor yodlash ustunlik qiladi, ya'ni ijobiy his-tuyg'ular zarur. Va agar o'yinlarda bo'lmasa, ularni qayerdan olish kerak?] Yosh bolalarga chet tilini samarali o'rgat-ishning yana bir usuli - bu rolli o'yin. O'qituvchi ba'zi ma'lumotlarni, masalan, hayvonlar yoki qushlarning nomlarini o'rgatishda bolalarga rol o'ynatishi yoki uni sahnalashtirishi kerak. Masalan: bir o'quvchi itning vovillashini, mushukning miyovlashini va sherning na'rasini ko'rsatsa, boshqa o'quvchi bu tovushlar qaysi hayvonga tegishli ekanligini bilib, uning inglizcha nomini aytishi kerak. Bolalar tezda o'rganadilar, lekin tezda unutishadi. Shuning uchun nutqni bir necha marta tak-rorlash, bir mavzu bo'yicha o'yinlar yoki tarqatma materiallar orqali darslar tashkil qilish bolalarni o'rganayotgan narsalarini eslab qolishiga yordam beradi. Takrorlash chet tilini o'rgatishning ajralmas qismi bo'ishi kerak. Bolalarga chet tilini muvaffa-qiyatlri o'rgatish o'qituvchidan turli xildagi usullardan foydalanishni talab qiladi. Yana bir misol, bolalarga ingliz tilini o'rgatishda "listening", ya'ni eshittirishlar qilish va bu bolaga qanday ta'sir qilishini kuzatish kerak. Agar bu eshittirishlar ularga tushunarsiz bo'lsa, unda osonroqlarini tanlay bilish kerak. Masalan, turli xildagi qo'shiqlar bolalarni ham raqsga tushib, ham kuylashiga yordam beradi. Yana bir samarali usul bolalarning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ular o'ynaydigan



narsalardan foydalanib o'rgatishdir. Ma'lumki, ota-onalar farzandlar uchun zarur bo'lgan birinchi raqamli insonlardir. Shuning uchun ular birinchi navbat-da ularning ta'lim olishi uchun javobgardirlar. Biror narsaga qiziqish uyg'otish, ma'lum bir yo'nalishga boshlash katta ahamiyatga ega. Bola hamma narsadan ko'ra o'z o'yinchog'i yoki kitobiga qiziqadi deylik va bola yangi so'z yoki atamani o'rganayotganda, unga yoqadigan narsa o'sha sevimli o'yinchoq orqali o'rgatilsa, bu so'z ham o'inchoqqa qo'shilib sevimli va yoddan chiqmas so'zga aylanadi. Bolalarga ikkinchi tilni o'rganish va ularga til o'rganish uchun qulayliklar yaratish bizning ularga beradigan eng katta tuhfalarimizdan biridir. Hozirgi kunda bir nechta tilni bilish nafaqat ishda, balki ijtimoiy, aqliy va madaniy jihatdan ham ko'p eshiklarni ochadi. Yoshlikdan til o'rganish bolalarni o'z tengqurlari orasida ajralib turishiga imkon beradi va shu bilan birgalikda, ulardagi ijodkorlikni, tanqidiy fikrlashni va muammolarni hal qila olish imkoniyatini taqdim etadi. Ammo ... bu jarayonni kichkintoylar uchun qanday qilib yoqimli va sodda qilishimiz mumkin? Quyida bolalarga ko'ngilochar usullar yordamida til o'rganishga yordam beradigan 5 usul haqida so'zlaymiz:

1. O'rganilishi maqsad qilingan tilda musiqa tinglash Chet tilini o'rganish davomida o'rganilayotgan tilda musiqa tinglash o'sha tildagi talaffuzni yaxshilaydi va shu bilan birgalikda, ulardagi yaratuvchanlikni, o'ziga bo'lgan ishonchni orttiradi va xotirani mustahkamlaydi. Bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish uchun bunday qo'shiqlarni Songs online for kids saytidan topishingiz mumkin. Bu yerda ularga til o'rganishga yordam beradigan asosiy narsa — ular eshitayotgan qo'shiqlarini ekranda qiziqarli va rangli taglavhalar orqali o'qib, yodlashlari ham mumkinligidir. Bundan tashqari, Facebookdagi LAE Kids sahifasida bolalarga bilim olishlari uchun yordam beradigan ko'plab musiqiy videolar joylashtirib boriladi.

2. O'rganilayotgan til ona tilisi bo'lgan va o'sha tilda gaplashadigan enagani yollang. Ko'pgina yoshlар, odatda talabalar, chet elga sayohat qilib, boshqa mamlakat madaniyatini, ikkinchi tilni o'rganish uchun yoki qo'shimcha pul topish uchun boshqa mamlakatlarda ishlashadi va bu ularga til o'rganish uchun qulay va



juda yaxshi muhitdir. O'zingizning ona tilingizda gaplashmaydigan yosh, kuchga to'la va quvnoq odamni enaga sifatida yollash bu — sizning bolalaringizni istirohat bog'iga borayotganda, o'yin o'ynayotganda, maktabdan qaytib kelayotganda yoki enaga bilan ovqat pishirayotganda til o'rganish uchun ajoyib imkoniyatdir.3. Multfilm tomosha qilish Chet tilini o'rganish uchun multfilmlarni tomosha qilish juda samarali usuldir. Hatto, bolalarga chet tilini o'rganishda yordam berish uchun mo'ljallangan ba'zi multfilmlar ham mavjud. Ushbu turdag'i shoularda bolalarni televizor oldida shunchaki o'tkazib qo'yish o'rniga, multfilmlar orqali bolani suhbat jarayoniga olib kirish tavsiya etiladi. Ushbu g'oya interaktiv o'quv multfilmlarida uchraydi va bu bolalarning tinglash va talaffuz qilish ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi. Siz bunday televizion ko'rsatuvlarni Netflix saytidan topishingiz mumkin. Unda bolalar uchun ko'plab teledasturlar mavjud va bu sizga taglavhalar qo'shish va tillarni almashtirish imkoniyatini beradi.4. Bolalar uchun mo'ljallangan dasturlar Hozirda kichik yoshdagi bolalar ham iPadni kattalardan ko'ra ko'proq mahorat bilan ishlata oladi. Xo'sh, nima uchun uni ta'lim maqsadlarida ishlatmaslik kerak? Qurilmaga til ko'nikmalarini oshirishga yordam beradigan dasturni yuklab oling. Quyidagi havola orqali siz farzandingizga til o'rganishi uchun yordam beradigan ko'plab dasturlarni topishingiz mumkin: language app 5. Sinfxonalarda o'yinli darslardan foydalanib, til o'rganishni va ularning tilga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash Til maktablari nihoyatda samarali ekanligining ham o'z sabablari bor: agar bolangiz ikkinchi tilni o'rganishini xohlasangiz, ularni o'yin orqali til o'rgatiladigan darslarga jalb qiling. Shunda farzandingiz yana shu yerga qaytib kelishni va darsni intiqlik bilan kutadi, bundan kelib chiqadiki, ular ham til o'rganishga xohish bildira boshlashadi. Bunday usulda bolalarga til o'rgatish ko'p yillar davomida sinalgan va juda samarali usul hisoblanadi. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, bolalar hayotda qilayotgan ishlari va o'yinlari asosida ularning kundalik hayotiga qiziqishadi. Demak, yo'nalishni kundalik ishlarga bog'lab o'rgatish pedagogning mas'uliyatiga,



qiziqtirish esa mahoratga bog'liq. Bolalarda til o'rganishga qiziqish uyg'ota olish o'qituvchidan yuksak malaka va mahorat talab qiladi. Bundan tashqari, kichik yoshdagi o'quvchilarning qiziqish va qobiliyati-ni hisobga olgan holda tashkil etilgan darslar bolalarining ko'proq bilim olishiga, o'qituvchilarning samarali ishlashiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotsky, L.S. (1978). *Mind in Society*. Harvard University Press.
2. Krashen, S. (1985). *The Input Hypothesis*. Longman.
3. Cameron, L. (2001). *Teaching Languages to Young Learners*. CUP.
4. G'ulomov, H. (2020). *Bolalar psixologiyasi va pedagogikasi*. Toshkent.
5. Nazarova, Z. (2023). "Erta yoshdagi til o'rganish". *Pedagogik tadqiqotlar*, №2.
6. Ellis, R. (1994). *The Study of Second Language Acquisition*. Oxford.
7. MEB (2021). *O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim strategiyasi*.